



E CONF SERIES



International Conference on Modern Science and Scientific Studies

Hosted online from Madrid, Spain

Website: econfseries.com

20th September 2025

TIJORAT BANKLARIDA SOLIQ TO'LOVLARI BO'YICHA MAJBURIYATLAR HISOBI VA HISOBOTINI TAKOMILLASHTIRISH

Mamirov Javlonbek Ma'rufjon o'g'li

O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi magistranti

Annotatsiya

Ushbu tezis O'zbekiston bank tizimidagi tijorat banklarida soliq to'lovleri bo'yicha majburiyatlar hisobini takomillashtirishga bag'ishlangan. Tadqiqot maqsadi soliq majburiyatlarini buxgalteriya hisobida aks ettirish va soliq hisobotlarini tayyorlashda mavjud muammolarni aniqlash hamda ularni bartaraf etish yo'llarini ishlab chiqishdan iborat.

Kalit so'zlar: soliq majburiyatları, buxgalteriya hisobi, soliq hisoboti, tijorat banklari, hisobot turlari

Kirish

Banklarning buxgalteriya va soliq hisobi bo'limlarida avtomatlashtirish darajasi pastligi hisob-kitoblar tezligi va aniqligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shuningdek, bankning ichki moliyaviy dasturlari bilan Soliq qo'mitasining elektron platformasi o'rtaida to'liq integratsiya yo'qligi sababli ko'plab ma'lumotlar qo'lda ko'chiriladi. Bu esa mehnat resurslarini ortiqcha band qilish va axborotning ishonchlilikiga putur yetkazish xavfini tug'diradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining va Vazirlar Mahkamasining so'nggi yillardagi qaror va farmonlarida soliq tizimini soddallashtirish, raqamlashtirish va soliq hisobotlarini avtomatlashtirish bo'yicha qator chora-tadbirlar belgilab qo'yilgan. Ushbu islohotlar doirasida banklar zimmasiga ham soliq intizomini mustahkamlash, axborot tizimlaridan samarali foydalanish va hisob-kitoblarda shaffoflikni ta'minlash kabi mas'uliyatlar yuklatilgan.

Tijorat banklarida soliq to'lovleri bo'yicha majburiyatlar hisobini takomillashtirish, avvalo, avtomatlashtirish, raqamlashtirish, ichki nazorat tizimlarini kuchaytirish va kadrlar salohiyatini oshirish orqali amalga oshirilishi mumkin. Bu nafaqat bankning moliyaviy barqarorligini mustahkamlash, balki davlat budgetiga barqaror tushumlar



E CONF SERIES



International Conference on Modern Science and Scientific Studies

Hosted online from Madrid, Spain

Website: econfseries.com

20th September 2025

ta'minlashga xizmat qiladi. Ilmiy va amaliy jihatdan asoslangan takliflar asosida ishlab chiqilgan islohotlar bankmoliya tizimining zamonaviylashtirilishiga va xalqaro standartlarga moslashtirilishiga zamin yaratadi.

Mavzuning dolzarbliги

Tijorat banklarida soliq to'lovleri bo'yicha hisobotlarni yuritish, ularni belgilangan muddatda va to'g'ri shaklda taqdim etish, soliq qonunchiligiga qat'iy amal qilish -moliyaviy intizomning muhim ko'rsatkichlaridandir. Biroq, amaliyotda ushbu tizimda ayrim muammolar mavjud: hisobotlarning murakkabligi, qo'lida yuritiladigan hujjatlar, avtomatlashtirilmagan jarayonlar va ichki nazoratning yetarli emasligi ularni qamrab oladi.

Olib borilgan tadqiqotlar natijasida tijorat banklarida soliq majburiyatlarining buxgalteriya hisobini yuritish va soliq hisobotlarini tayyorlashda bir qator tizimli kamchiliklar mavjudligi aniqlandi. Xususan, ichki tartib-qoidalarning mukammal emasligi, bank xodimlarining soliq masalalari bo'yicha malakasi yetarli emasligi, soliq majburiyatlarini inventarizatsiya qilish va soliq organlari bilan hisob-kitoblarni taqqoslash ishlarining past darajada ekanligi, dasturiy ta'minotni joriy etishning sustligi asosiy muammolar hisoblanadi. Fikrimicha, mazkur muammolarni hal etishda quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq.

Tijorat banklarining buxgalteriya siyosatini takomillashtirish, soliq majburiyatlarini tan olish, baholash va aks ettirish qoidalari aniq belgilash lozim. Bunda moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari (MHXS) talablaridan kelib chiqish zarur. Bank xodimlarining soliq masalalari bo'yicha bilim va ko'nikmalarini oshirish uchun ixtisoslashtirilgan treninglar, seminar va o'quv kurslarini tashkil etish kerak. Shuningdek, soliq masalalari bo'yicha konsalting xizmatlaridan foydalanish maqsadga muvofiq. Soliq majburiyatlarini inventarizatsiya qilish va soliq organlari bilan soliq majburiyatlarini bo'yicha hisob-kitoblarni taqqoslash ishlarini muntazam ravishda amalga oshirish zarur. Bu soliq majburiyatlarini buxgalteriya hisobida to'g'ri aks ettirilishini ta'minlaydi.

Hozirgi vaqtida O'zbekiston Respublikasi tijorat banklarida soliq majburiyatlari bo'yicha hisobot yuritish belgilangan soliq qonunchiligi va Moliya vazirligi



E CONF SERIES



International Conference on Modern Science and Scientific Studies

Hosted online from Madrid, Spain

Website: econfseries.com

20th September 2025

tomonidan tasdiqlangan buxgalteriya standartlari asosida amalga oshiriladi. Har bir soliq turi uchun alohida hisobot shakllari mavjud bo‘lib, ularni to‘ldirish tartibi aniq reglamentlashtirilgan. Masalan, foyda solig‘i bo‘yicha har chorakda va yil yakunida hisobotlar tayyorlanadi, ijtimoiy soliq va QQS bo‘yicha esa odatda oyma-oy hisobot topshiriladi.

Soliq hisobotlarini tayyorlashni avtomatlashtirishga alohida e’tibor qaratish lozim. Buning uchun maxsus dasturiy ta’minotlarni sotib olish va joriy etish zarur. Dasturiy ta’mindan foydalanish xatolar ehtimolini kamaytiradi va soliq hisobotlarini o’z vaqtida topshirilishini ta’minlaydi. Soliq majburiyatlarini hisoblash va soliq to’lovlarini amalga oshirish muddatlariga rioya qilishni ta’minlash lozim. Buning uchun soliq taqvimini ishlab chiqish va uning bajarilishini monitoring qilish zarur.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, tijorat banklarida soliq majburiyatları hisobi va hisobotini takomillashtirish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Shu maqsadda banklarning buxgalteriya siyosatini takomillashtirish, xodimlar malakasini oshirish, soliq majburiyatlarini inventarizatsiya qilish va soliq organlari bilan hisob-kitoblarni taqqoslash ishlarini tizimli ravishda yo'lga qo'yish, soliq hisobotlarini tayyorlashni avtomatlashtirish, soliqlarni o'z vaqtida hisoblash va to'lash choralarini ko'rish lozim. Ushbu tadbirlar tijorat banklarida soliq intizomining mustahkamlanishiga va moliyaviy barqarorlikning oshishiga xizmat qiladi.

Shuningdek, takomillashtirilgan soliq hisoboti tizimi banklar faoliyatining shaffofligini oshirish bilan birga, moliyaviy audit va soliq tekshiruvlarining samaradorligini ham ta’minlaydi. Elektron axborot almashinuvi orqali soliq organlari va tijorat banklari o‘rtasidagi o‘zaro axborot oqimi tezlashadi, bu esa real vaqt rejimida nazorat qilish imkonini beradi. Natijada soliq to’lovlarida aniqlik, tartib va javobgarlik oshadi. Bundan tashqari, takomillashgan tizim orqali xalqaro moliyaviy tashkilotlar bilan hamkorlikni kengaytirish, ularning ishonchini oshirish va xorijiy sarmoyadorlar uchun qulay moliyaviy muhit yaratish imkoniyati tug‘iladi. Bu esa mamlakat iqtisodiyotining raqobatbardoshligini ta’minlashga, bank sektorining kredit reytingini yaxshilashga xizmat qiladi.



E CONF SERIES



International Conference on Modern Science and Scientific Studies

Hosted online from Madrid, Spain

Website: econfseries.com

20th September 2025

Yakuniy natijada, soliq majburiyatlari hisobi va hisobotini ilg‘or texnologiyalar asosida tashkil etish O‘zbekiston bank tizimining institutsional salohiyatini mustahkamlab, barqaror va ishonchli moliyaviy boshqaruv tizimini shakllantirishga xizmat qiladi. Shu boisdan, ushbu yo‘nalishda izchil islohotlarni davom ettirish zarur hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Vakhabov A.V., Ro'zmetov B.Y. Soliqlar va soliqqa tortish. Darslik. – T.: TDIU, 2019. – 320 b.
2. Мусаев Ҳ.Н. Солик мажбуриятларининг бухгалтерия ҳисобини такомиллаштириш масалалари. // Солик ва бухгалтерия ҳисоби журнали, 2020 йил, 3-сон. 21-25 б.
3. Urazov K.B. Bank accounting. Textbook. – T.: "ECONOMY-FINANCE", 2017. – 584 p.
6. Sobirov, B. Tijorat banklarida moliyaviy boshqaruv: nazariya va amaliyot. – Toshkent: Ilm Ziyo, 2019.
7. Karakulov, S. Soliq hisoboti va uning zamonaviy talablari. // “Moliya” ilmiy-amaliy jurnali, №3, 2022. – B. 24–28.
8. Ruzmatov, M. Bank-moliya tizimida raqamli texnologiyalarning tatbiqi. // “Bank ishi va audit” jurnali, №1, 2023. – B. 10–14.
9. www.soliq.uz – O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasining rasmiy veb-sayti.
10. www.cbu.uz – O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining rasmiy sayti (banklar faoliyati, hisobotlar va normativlar bo‘yicha).